

TAJRIBADA KO`KRAK LIMFA YO`LI BOG`LANGANDA JIGARDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Radzhabov Zakir Narmuratovich assistent

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolaning ma`zmunida yozilishich, tajriba sharoitida itlarning ko`krak limfa yo`li bo`yin sohasida venaga quyilish joyidan bog`langanda jigarning to`qimalarida limfa tizimining patomorfologik o`zgarishi o`rganilgan. Ko'krak limfa va o't yo'llarini birgalikda bog'lashdan keyin jigarda limfa aylanishining buzilishi ta'sirini o'rganishda kanallarni bog'lashdan keyin Disse bo'shliqlarini aniqlashda qo'shimcha morfologik tavsiflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tajribada, it, limfa tomirlari, jigar, patomorfologik o'zgarish, ko'krak limfa yo'li. гематоксилин-эозином, пикрофуксином по Ван-Гизону.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПЕЧЕНИ ПРИ ЛОКАЛИЗАЦИИ ГРУДНОГО ЛИМФАТИЧЕСКОГО ПУТИ

Раджабов Закир Нармуратович Ассистент

кафедры Общая гигиена и экология

Самаркандского государственного медицинского университета,

Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В статье описаны патоморфологические изменения лимфатической системы в тканях печени собак в экспериментальных условиях при перевязке грудного лимфатического протока в месте впадения в вену на шее. Дополнительные морфологические характеристики даны при изучении влияния нарушения лимфообращения в печени после

комбинированной перевязки грудных лимфатических и желчных путей, а также при выявлении пространств Диссе после перевязки протоков.

Ключевые слова: экспериментальный, собака, лимфатические сосуды, печень, патоморфологические изменения, грудной лимфатический проток. гематоксилин-эозин, пикрофуксин по Ван-Гизону.

EXPERIMENTAL MORPHOLOGICAL CHANGES IN THE LIVER IN THE LOCALIZATION OF THE THORACIC LYMPHATIC PATHWAY.

**Radjabov Zakir Narmuratovich Assistant
Department of General Hygiene and Ecology
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan**

Abstract: The article describes pathomorphological changes in the lymphatic system in liver tissues of dogs under experimental conditions with ligation of the thoracic lymphatic duct at the site of its entry into the vein on the neck. Additional morphological characteristics are given in the study of the effect of impaired lymph circulation in the liver after combined ligation of the thoracic lymphatic and bile ducts, as well as in the detection of Disse spaces after ligation of the ducts.

Key words: experimental, dog, lymphatic vessels, liver, pathomorphological changes, thoracic lymphatic duct. hematoxylin and eosin, picrofuchsin according to Van Gieson.

Kirish. Jigarning limfatik tizimini funktsional morfologiyasi hozirgi kunda barcha tafsilotlari bilan yetarlicha o'rganilgan. Uning ichki organ limfatik tizimi fibrinogen, oqsil, katta miqdordagi suyuqlik va boshqalarni qon aylanish tizimiga tashishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, jigarda limfa turg'unligining atigi 1,5 soat davom etishi seroz yallig'lanishning gistologik manzarasini keltirib chiqarishi mumkin [4,6,7]. Jigardan limfaning asosiy qismi ko'krak limfatik yo'li orqali oqib chiqadi deb hisoblanadi. Bu yo'l ko'pincha klinik sharoitlarda, operatsiyalar vaqtida shikastlanganda bog'lanadi [3,5]. Demak, bu aralashuv jigarda limfa

aylanishining vaqtincha buzilishiga olib kelishi mumkin. Ko'krak limfatik yo'lining bog'lanishining jigarning ichki limfatik tizimiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar soni juda oz [1,8]. Ko'krak limfatik yo'li va o'ng limfatik magistral bog'langanda Disse bo'shliqlarining aniqlanishi, shuningdek, limfa aylanishining buzilishi natijasida jigarda yuzaga keladigan patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha alohida morfologik tasvirlar mavjud [2,9].

Tadqiqot maqsadi: Biz itlarda jigarning ichki limfatik tizimining patomorfologik holatini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tajribalar 20 ta hayvon ustida o'tkazildi. Umumiy og'rig'sizlantirish ta'sirida itlarda ko'krak limfatik yo'li bo'yin sohasida venoz burchakga guyilish joyidan bog'landi. Hayvonlar yo'l bog'langanidan keyin 2-3 kun, 6-7 kun va 2-4 hafta o'tgach so'yildi. Gistologik preparatlar gematoksilin-eozin, Van-Gizon bo'yicha pikrofuksin, Fut bo'yicha argirofil tolalar va Veygert bo'yicha elastik tolalar usullari bilan bo'yaldi.

Tadqiqot natijalari: Operatsiyadan 2 kun o'tgach, ichki limfatik tarmoqning sezilarli darajada kengayishi kuzatildi. Lobulalararo va qon tomirlari atrofidagi biriktiruvchi to'qimalardan o'tuvchi kengaygan limfatik tomirlar limfa bilan to'lib, pushti rangda bo'yalgan edi. Jigar venalari atrofida joylashgan biriktiruvchi to'qimadagi limfatik kapillyarlar ham diametri jihatidan kattalashgan. Lobulalararo biriktiruvchi to'qima, limfatik va qon tomirlari, shuningdek, o't yo'llarini o'rab turgan barcha to'qimalar sezilarli darajada shishgan edi. Operatsiyadan 3 kun o'tgach, limfatik tomirlar yanada kengaygan. Lobulalararo va qon tomirlari atrofidagi limfatik tarmoq kapillyarlari orasida, ichida alohida eritrotsitlar bo'lgan limfatik tomirlar uchraydi. Lobulalararo biriktiruvchi to'qimaning shishi sezilarli darajada edi. Operatsiyadan 6-7 kun o'tgach, lobulalararo biriktiruvchi to'qimaning shishi va limfatik tomirlarning kengayishi o'zgarishsiz qoldi. Operatsiyadan 2 hafta o'tgach, jigardagi limfatik tomirlarning kengayishi bilan birga, bizning tajribalarimizda kuzatilgan o'zgarishlar kamroq yaqqol bo'ldi.

Xulosa: Bu o'zgarishlar odatda operatsiyadan so'ng darhol yuzaga kelmadi, balki asta-sekin rivojlanib, operatsiyadan keyin 3-6-kunlarda limfatik tomirlarning kengayishi va biriktiruvchi to'qimaning shishi sifatida eng yaqqol ko'rindi. Shubhasiz, bu o'zgarishlar organ limfatik tizimidagi funksional o'zgarishlarning aksidir. Olingan ilmiy ma'lumotlar amaliyotda ko'krak a'zolarining limfa qon – tomirlarida bo'ladigan anatomo – gistologik o'zgarishlarda, jigarning lima tizimida bo'ladigan o'zgarishlarni asoslaydi.

REFERENCES| ЧОККИ | IQTIBOSLAR:

1. Abdullaeva, D. R., Ismati, A. O., & Mamataliev, A. R. (2023). Features of the histological structure of extrahepatic bile ducts in rats. *Golden brain*, 1(10), 485-492 (in Russ).
2. Mamataliev, A., & Oripov, F. (2021). Histological structure of the intramural nervous apparatus of the common bile duct and gallbladder in a rabbit, in norm and after gallbladder removal. *Journal of Biomedicine and Practice*, 1(3/2), 117-125(in Russ).
3. Маматалиев А. Р. и др. АНАТОМО-ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ И АКТИВНОЕ СОКРАЩЕНИЕ СТЕНОК ВОРОТНОЙ ВЕНЫ ЛАБОРАТОРНЫХ ЖИВОТНЫХ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 163-168.
4. Narbayev S. et al. Behavioral adaptations of Arctic fox, *Vulpes lagopus* in response to climate change //Caspian Journal of Environmental Sciences. – 2024. – Т. 22. – №. 5. – С. 1011-1019.
5. Mamataliev, A. R. (2024). Nervous apparatus of extrahepatic bile ducts in rabbit after experimental cholecystectomy. *International journal of recently scientific researcher's theory*, 2(4), 161-165(in Russ).
6. Маматалиев А. Р. Особенности нейрогистологическое строение интразонального нервного аппарата вне печеночных желчных протоков у крыс //экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 692-695.

7. Зохидова С., Маматалиев А. Морфофункциональная и гистологическом строении эпителия языка крупного рогатого скота //евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 133-139.
8. Маматалиев А. Р., Хусанов Э. У. Морфология интрамурального нервного аппарата гаст-рохоледоходуоденальной зоны после экспериментальной холецистэктомии //Морфология. – 2008. – Т. 133. – №. 2. – С. 82b-82b.